# Senator va deputatlar bilan uchrashuv

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, senatorlar ishtirokida uchrashuv o’tkazildi.





Unda FA ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, yetakchi olimlar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.





Uchrashuvda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni loyihasi ishtirokchilar e’tiboriga havola qilindi. Qonunning maqsadi, vazifalari haqida tanishtirib o’tildi. Maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi muammolar, yechimini kutayotgan dolzarb masalalar atrofilicha muhokama qilindi. Ishtirokchilar o’zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar. Uchrashuv qizg’in muzokaralarga boy bo’ldi.



